

# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA NUTQ O'STIRISH

## MASHG'ULOTLARIDA BOLALARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH

### TEXNOLOGIYALARI

**Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi**

*Qo'qon universiteti Ta'lism kafedra o'qituvchisi*

**Yo'ldosheva Mubinaxon Zafarjon qizi**

*Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lism yo'naliishi 2.23-guruh talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyalari, bolalarda nutqiy rivojlanishni ta'minlash, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish qobiliyatlarini shakllantirish haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** nutq o'stirish, interfaol usullar, o'yin texnologiyalari, rivojlantirish, yangi g'oyalar, bola, pedagog, tadqiqiot, natija, mashg'ulot, mustaqil fikrlash.

#### **KIRISH**

Bugungi kunda ta'lism tizimida bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lism tashkilotlarida nutq o'stirish mashg'ulotlari orqali bolalarda mantiqiy tafakkurni shakllantirish, ularning o'z fikrini aniq va ravon ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston – taraqqiyot va ma'rifat sari" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lism sifatini oshirish, yosh avlodni ijodkor va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Xususan, 2022-yil 12-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-134-sonli Prezident farmoni hamda 2021-yil 6-noyabrdagi "Ta'lism sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarori maktabgacha

ta’lim tashkilotlarida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, innovatsion ta’lim usullaridan keng foydalanish zaruratini belgilab berdi.

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nutq o’stirish mashg‘ulotlari jarayonida bolalarni mustaqil fikrlashga o’rgatishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari, ilg‘or metodlar hamda samaradorlikka erishish yo’llari tahlil qilinadi.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Maktabgacha ta’limda bolalarning nutqini rivojlantirish va mustaqil fikrlashga o’rgatish texnologiyalarining samarali qo’llanishi uchun zamonaviy pedagogik metodlar, innovatsion texnologiyalar, shuningdek, muloqot va kreativ faoliyatga asoslangan yondashuvlarning ahamiyatini ko’rsatib beradigan adabiyotlar ham o’rganib chiqildi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga o’rgatishda o‘yin, interaktiv mashg‘ulotlar, multimedia vositalari va guruhli faoliyatlar muhim rol o‘ynaydi.

**A. Qodirovaning "Maktabgacha ta’lim tizimida nutqni rivojlantirish"** kitobida maktabgacha ta’limda bolalarning nutqini rivojlantirish usullari va metodologiyasiga oid to‘liq tavsiflarni ko‘rishimiz mumkin. Muallif bolalarni o‘z fikrlarini erkin ifodalashga o’rgatish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash zarurligini ta’kidlaydi. Kitobda mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun bolalar bilan interaktiv faoliyat va o‘yinlarni tashkil etish zarurligi haqida so‘z boradi. **R. To‘xtasinova o‘zining "Nutqni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar" maqolasida** nutqni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalaridan, xususan, kompyuter texnologiyalari va multimedia vositalaridan foydalanish jarayoni tahlil qilingan. Muallif bolalarni mustaqil fikrlashga o’rgatishda multimedia vositalari va onlayn resurslar yordamida interaktiv mashg‘ulotlar tashkil etishning samaradorligini ko‘rsatadi. **Sh. Karimovaning "Maktabgacha ta’limda bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish"** asarida maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari ko‘rib chiqiladi. Muallif bolalarga erkin fikrlashni o’rgatishda yengil va o‘yin asosida o‘qitish metodlarining samarali ekanini ta’kidlaydi. Shuningdek, bu asarda nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlarida analitik fikrlash va qiziqarli masalalar yordamida bolalarni mustaqil fikrlashga rag‘batlantirish ko‘rsatilgan.

**Z.Mamaqulova "Pedagogik texnologiyalar va metodlar" kitobida** pedagogik texnologiyalarning bolalar ta'limidagi o'rni va ularning mustaqil fikrlashni rivojlantirishdagi roli haqida batafsil ma'lumot beradi. Muallif turli pedagogik texnikalar, masalan, mashg'ulotda erkin fikr almashish, kreativ faoliyat va guruhli ishlarning bolalar nutqiga ta'sirini tahlil qiladi. Kitobda shuningdek, bolalar uchun yangi metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligi va ularning ta'lim jarayoniga kiritilishi muhimligi ta'kidlanadi.

**T.Shavkatova "Bolalar bilan muloqotda nutqni rivojlantirish" nomli ilmiy ishida** bolalar bilan muloqotda nutq rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Muallif bolalarning muloqotdagi erkinligi va kreativ fikrlashini oshirish uchun pedagogning roli, bolalarga nutqni o'rgatishda innovatsion yondashuvlar va metodlarni qo'llashning ahamiyatini tahlil qiladi. Asarda nutqni rivojlantirishda o'yinlar va didaktik vazifalarning samaradorligi ko'rsatilgan.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Ushbu tadqiqotda kuzatish, eksperiment va tahlil usullari qo'llanildi. Nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarning faol ishtirokini ta'minlash uchun interfaol o'yinlar, savol-javoblar, hikoya tuzish va muammoli vaziyatlarni hal qilish metodlari qo'llandi. Tadqiqotda 5-6 yoshli 30 nafar bolalar ishtirok etdi. Ular bilan 2 oy davomida har hafta ikki marotaba nutq o'stirish mashg'ulotlari olib borildi. Mashg'ulotlarda "O'ylab top", "Savol-yashirin", "Hikoya davom ettir" kabi metodlar qo'llanildi. Pedagoglarning bolalar bilan ishslash uslubi, ota-onalarning bolalarga bo'lgan munosabati ham kuzatildi. Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasida ko'tarilgan ulug'ver vazifalaridan biridir. Bu tizimning asosiy maqsadi bolalarni sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlash, erta yoshlikdan o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qishga tayyyorlab borishdan iborat. TMM ning asosiy maqsadi bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash barkamol rivojlangan mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish va qobiliyatlarni ochib berish tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Bundan tashqari Prezidentimiz bu haqda shunday degan edi: "Oldimizda turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb -hunarlarg'a, o'z

mustaqil fikriga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat"<sup>1</sup>

## NATIJALAR

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, bolalarning nutqiy faolligi va mustaqil fikrlash qobiliyatları sezilarli darajada oshdi. Mustaqil hikoya qilish, o‘z fikrlarini aniq va ravon ifodalash qobiliyatları rivojlandi. Eksperimentda ishtirok etgan bolalarning 80% mustaqil fikrlashda ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Bolalar yangi vaziyatlarda o‘z fikrlarini bildirishga intilishdi, o‘yinlarda muammoli vaziyatlarni hal qilishda faol ishtirok etishdi. Pedagogik yondashuvlar samaradorligi ota-onalar va pedagoglar tomonidan ham ijobiy baholandi. Bola tomonidan nutqni o‘zlashtirishga asosli yondashuv bilan kelishgan holda biz shunga e’tiborimizni qaratdikki, qo‘llanma mualliflari tez-tez «yordam berish», «mashq qildirish» va boshqa iboralarni qo‘llaydilar-u, biroq qay tarzda yordam berish, mashq qildirish mumkinligiga kam e’tibor qaratadilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola har tomonlama mактаб та’лимiga tayyorlanadi. Ular orasida bola nutqini rivojlantirish eng asosiyalaridan hisoblanadi. Mashg‘ulotlar jarayonida mantiqan fikrlash va tafakkurini rivojlantirish orqali bolalarni maktabga tayyorlash. Ularning so‘z boyligi oshishi, ravon gapirishi va o‘z fikrini to‘liq ifoda etib, aytib bera olishi juda muhim. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar orasida nutq o‘stirish mashg‘uloti eng asosiy mashg‘ulotlardan hisoblanadi.

## XULOSA MUNOZARA

Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida mustaqil fikrlashni rag‘batlantiruvchi texnologiyalarni qo‘llash katta samara beradi. Bu usullar bolalarning nafaqat nutqiy, balki aqliy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida kuzatilgan bolalarning qiziqishi va faolligi yuqori bo‘ldi, bu esa o‘quv jarayonining samaradorligini oshirdi. Shuningdek, oila va jamiyatning bolalar fikrlash qobiliyatlariga ta’siri, pedagoglarning motivatsiyasi va ta’lim jarayonidagi hamkorlikning o‘rni ham muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Kelgusida ushbu texnologiyalarni yanada takomillashtirish,

<sup>1</sup> Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar nutqini o‘stirishda komunikativ muloqot o‘rni : Ergasheva G.B , Shodiyeva U

pedagoglarni maxsus o‘quv kurslari orqali o‘qitish va ota-onalarni ham ushbu jarayonga jalg qilish lozim. Agar bola kichik yoshidan boshlab to‘g‘ri gapirishga (so‘zlashishga) o‘rgatib borilsa, u vaqtida bunday bola me’yoriy holatda rivojlanadi, ya’ni avval tasavvur etish, keyin esa fikr yuritish, xayol qilish qobiliyati paydo bo‘ladi va bu qobiliyat har bir yosh bosqichida takomillashib boradi. Bolalarda intellekt bilan barobar ravishda iroda kabi ruhiy jarayon ham takomillashib boradi.

Ko‘pgina tajribalar shuni ko‘rsatadiki, nutqi rivojlanmagan bola to‘liq shaxs sifatida kamol topmaydi. Demak, tarbiyachi har doim shuni esda tutishi kerakki, nutq bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda barcha ruhiy jarayonlar rivojlanishiga ko‘maklashuvchi vositadir. Bolaga ona tilini o‘rgatish bilan bir vaqtida, uni matabda muvaffaqiyatli o‘qishi uchun zamin tayyorланади, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o‘rgatiladi. Bolalar bog‘chasing barcha tarbiyaviy-ta’limiy ishlarida bolalarga ona tilini o‘rgatish orqali ularning nutqi o‘stiriladi. Ayniqsa, nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida har bir bolaning nutqiniostirish bo‘yicha ishlar rejalashtiriladi. Bolalarga barcha mashg‘ulotlarning mazmuni faqat ona tili orqali singdiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish uchun interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuv samaradorligini tasdiqladi va keljakda bolalar rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda oila va jamiyat bilan hamkorlik qilish zarurligi ta’kidlanadi. Pedagoglar uchun maxsus treninglar va o‘quv dasturlarini joriy qilish, ota-onalarni tarbiyaviy jarayonga jalg qilish kelgusidagi muhim vazifalardan biridir.

## **ADABIYOTLAR**

1.D.R.Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. Darslik. Barkamol fayz media nashriyoti. 2018

2.F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, N.Qayumova, M.A’zamova. Maktabgacha pedagogika. Darslik. Tafakkur nashriyoti. Toshkent 2019

3. 1.Sh.Sodiqova Maktabgacha pedagogika. Darslik. Tafakkur bo‘stoni. Toshkent 2013

4. Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning pedagogik asoslari” Ilmiy maqola.

“Sciene and innovation” International scientific journal. 2022. № 2 ISSN: 2181-3337

5. F.O‘rinova, M.Jaloliddinova Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash tamoyillari „Academic excellence on science and Research” Respublika jurnalida, ISSN: 2181-2608